

JAHON RAQS SAN'ATI TARIXIDAN

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14942532>

Urazmetova Kurbanbika

Boboqulova Dilnoza

Uzbekiston Davlat Xareografiya Akademiyasi Urganch filiali 3-bosqich talabasi Ilmiy-tadqiqotlar, innovasiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi Ilmiy tadqiqot ishlari (1-toifali) muhandisi

Boboqulova Dilnoza

Uzbekiston Davlat Xareografiya Akademiyasi Urganch filiali 3-bosqich talabasi 3-bosqich talabasi

Asanoba Asemoy

Uzbekiston Davlat Xareografiya Akademiyasi Urganch filiali 3-bosqich talabasi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada raqs san'atining qadimiyligi, har bir millat va xalqning raqs san'atining rivojlanishi bosqichlari, san'at va madaniyatning xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar rivojlanishida tutgan o'rni tarixiy va ilmiy ma'lumotlar orqali bayon qilingan.

Kalit so'zlar

Davr, raqs, tarix, san'at, jahon, Fraun, garem, xalq raqslari, arxeologiya, Misr, Yunoniston, pantomima, xoreografiya, Yevropa, bayaderka.

Raqs san'ati san'atning eng go'zal, jozibador turlaridan sanaladi. Raqs san'at turi bo'lib musiqaga monand ritmik tana harakatlarida namoyon bo'ladi. Raqs turli madaniyatlarda mavjud va hissiyotlar, ijtimoiy aloqalarni bildirish shakli sifatida yoki ko'ngilxushlik uchun ijro qilinadi.

Raqs san'ati tarixiga nazar soladigan bo'lsak, raqs san'atning eng qadimiy turlaridan sanaladi. Raqs san'ati insonning ichki tuyg'ularini, tabiat hodisalarini, voqealarni, go'zalliklarni qo'l harakatlari, ko'z, bosh, imo-ishoralar orqali musiqa bilan hamohang ravishda obrazlar orqali ifodalash san'atidir.

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlar turmushida bir-birlari bilan muloqat qilish vositasi sifatida raqs san'ati paydo bo'lgan. Ibtidoiy odamning harakatlari va qiliqlari go'zallikdan yiroq, ular qandaydir qiymatga ega bo'lmagan.

Jahon san'ati tarixini o'rganish uning taraqqiyot qonunlarini tushunishi, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmishi, odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish, g'oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz

kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi.

Bundan 5300 yil avval Misrda raqs san'ati paydo bo'lgan. Misrda qadim Misr raqslari o'zgacha va hech nimaga o'xshamaydi. Uzoq yillar davomida Fr'avn vaqtida xoreografiya san'atining ko'p turlari paydo bo'la boshladi. Ko'ngil ochar raqslar, Gareem raqslari. Gareem-anime va manqadagi munosabatlar janri bo'lib unda bosh qahramon qarama-qarshi jinsdagi ko'p sonli personajlar bilan o'ralgan. Ayol qahramonlar qahramonning e'tiborini jalb qilishi uchun bir-biri bilan raqobatlashishi mumkin.

Marosimiy raqslar diniy va hatto harbiy raqslar. Bunday turli xil raqs tushayotgan odamlar tasviri bizning davrimizgacha yetib kelgan. Vaqt o'tgani sayin qadimgi Misr raqslarida Efiopia, Nubiya, Sudan, Suriya, Falastin kabi qo'shni mamlakatlarning raqslari kirib kela boshladi. Har bir davlatdan kichkina bir qisman raqs an'analari qabul qilindi.

Miloddan avvalgi 1500 yillarga kelib Qadimgi Misr Xoreografiyada Hind bayaderkalari egiluvchanlik, elegantlik va nafislikni olib kiradilar.

Qadim Misr raqslarining eng o'zgachasi deb astronomik ruhoniylar raqsini aytish mumkin, unda yulduzlar sirini topishgan va taqdirdan bashorat qilishgan. Har bir harakat o'z ma'nosiga ega bo'lgan. Masalan, raqs ijrochilari oldin Sharqdan G'arbga qarab harakatlanishgan, osmon harakatlanishini ifoda etishgan, so'ngra esa G'arbdan Sharqqa qarab harakatlanishgan, jonli sayyorani tasvirlashgan.

Zamonaviy Misr xoreografiya an'analari Qadimgi Misr raqslaridan faqrlanadi. Lekin ular yanada turli xil harakatlar bilan boyidi. Shuncha vaqt o'tishiga qaramasdan Misr raqslari qaytarilmas va yagona bo'lib qoldi.

Misr sivilizatsiyasini Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida e'tirof etish mumkin.

Misrda ilk kalendarning yaratilishi, Misrni qizil va qora mamlakatga bo'linishi esa Misrning rivojlangan mamlakat ekanidan dalolat beradi.

Misrliklarning marosim raqslari ya'ni dafn marosimi raqslari ham mashhurdir.

Raqs san'ati tarixini o'rganish mobaynida biz Yunoniston madaniyati va raqs san'ati ko'p yillik boy tarixga ega ekanligiga amin bo'ldik.

Qadimgi Yunon raqslarini diniy, urf-odat, udumlar, marosimlar, harbiy, sahnaviy, ijtimoiy, maishiy va shu kabilarga bo'lish mumkin.

Diniy raqs ma'lumotlariga ko'ra Misrdan Yunonga Orfey tomonidan keltirilgan. U bunday raqlarni misrliklarning ibodatxona bayramlarida ko'rgan. Biroq o'sha harakatlar jestlarni o'z ritmiga bo'ysundirgan va shu tarzda raqlar ko'proq yunonliklar xarakteri va ruhiga mos bo'lib tushgan.

Bu raqslar Lira sadosi ohanglari jo'rligida ijro etilgan va o'zining jozibador go'zalligi bilan ajralib turgan.

Harbiy raqslar qadimgi Yunonistonda yosh va o'smirlarda mardonavorlik, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik burch hissini tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Orfey qadim Grek afsonaviy musiqachisi, qo'shiqchi shoir va filosofi hisoblanadi. Otasi Appolon unga oltin Lira sovg'a qiladi. Orfey lirani chalganda yovvoyi hayvonlar, qushlar musiqani tinglashar, hattoki tosh daraxtlarga go'yoki jon baxsh etardi. Lira musiqa asbobi bo'lib bugungi kunda musiqani ramzi kaliti deb ham ataladi.

Bugungi kunda musiqada lirika kayfiyatni ko'taruvchi ashula deb yuritiladi. Lira eng sayroqi qush bo'lib uning sayrashidan butun borliq sehrli kuyga cho'lg'anganday bo'lardi.

Adabiyotda esa lirika she'riyat ma'nosida ham qo'llaniladi.

[2. Internet sahifalari]

Qadimgi Misr madaniyati musiqa va raqs bilan juda boyitilgandi. Misrliklar xursandchilikni juda yoqtirishar va biron-bir bayram yoki tadbir musiqa ohangiga jo'r bo'lgan raqslarsiz o'tmas edi. Shuning uchun qadimgi Misrdagi turli toifadagi odamlarning asosiy vaqtlarini raqslar bilan o'tkazishgan deb ishonch bilan aytish mumkin. Hamma raqsga tushgan ishchi xalq musiqa ohangi asboblariga va qo'shiqlar tinglab ishlashar, tanaffus paytida esa raqsga tushishar edi. Qadimgi Misr ko'chalari har doim gavjum, o'tganlarni ko'nglini olishar va zavqlantirishar edi. Lekin shuni aytish lozimki, yuqori tabaqadagi odamlar bunday raqslarni ijro etishmasdi, faqatgina bayram mehmonlari va xo'jayinlarni ko'nglini olishga yollangan raqqosalarni kuzatishardi.

Qadimgi Misr raqs san'ati yuqori darajada qadrlangan. Geografik joylashishdan kelib chiqib, bu davlat boshqa davlatlardan ajratilgan, shuning uchun raqs madaniyati ham boshqa xalq va madaniyati aralashmagan holda mustaqil rivojlangan. Sahnaviy raqslar dastlab Yunoniston va Hindistonda paydo bo'lgan.

Yevropa professional raqs san'atining rivojlanishida Yunoniston va Rim raqsining o'rni nihoyatda kattadir.

Jahon raqs san'atida balet san'atining o'rni ham kattadir. "Balet" so'zi (balletto lotincha ballo o'ynayman) 16-asrda Italiyada operada raqs epizodlari ma'lum xarakterni bildirgan. Balet asar mazmuni musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san'at turi. O'zida san'atning dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, ta'sviriy san'at kabi turlarini uyg'unlashtiradi. Bu san'at turlarining

hammasi alohida-alohida mavjud bo'lmay, baletning sintez markazi bo'lgan xoreografiyaga bo'ysunadi.

Balet- musiqada yozilgan xoreografiyada gavdalantirilgan drama. Baletning fojea, komediya, pyesa, baletsimfoniya kabi janrlari bor.

1581-yil fransiyada yaxlit va rivojlangan mazmunli musiqa, raqs, pantomimo, so'z va ashula bilan ifodalangan birinchi balet spektakli "Qirolichaning hajviy baleti" yaratildi.

1661-yil Parijda tashkil qilingan "Qirollik raqs akademiyasi" baletning professional san'atga aylanishida katta rol o'ynadi.

Rossiyada birinchi bo'lib balet spektakli 17-asrning 70-yillarida "Orfey va Evridika haqida balet" yaratilgan.

[3. Internet tarmog'i. Vikipediya.]

O'zbekistonda ham XX-asr boshlarida balet san'ati rivojlana boshladi.

O'zbekiston xalqi qadimdan o'zining mumtoz raqsiga, rang-barang, rivojlangan raqs madaniyatiga ega bo'lib, bu O'zbekistonda professional balet san'atining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. 1918-yil Toshkentda Turkiston xalq konservatoriyasi zaminida davlat rus opera teatri tashkil qilindi. Teatr qoshida kichik balet truppasi ham tashkil qilindi.

1925-yilda M.F.Moiseyev tomonidan Chaykovskiyning "Oqqush ko'li" baleti qo'yildi. Bu baletni G. Pokrovskaya, V.Gubskaya, T.Kutaskova, A.Tomskiy, N.Dovilli, V.Nejdapov, G.Galetko, O.Abrikosov, Ye.Semenovalar ijro etishgan.

O'zbek baleti namoyondalaridan Galya Izmaylova, Bernora Qoriyevalar balet san'ati rivojiga katta hissa qo'shdilar.

O'zbekiston xalq artisti, ajoyib baletmeyster Ibrohim Yusupov tomonidan sahnalashtirilgan Sharqona baletning o'zgacha jilosini aks etuvchi baletlar sarasiga kiruvchi M.Ashrafiyning "Sevgi tumori", U.Musayevning "Tomaris", F.Ashirovning "Ming bir kecha", G.Mushelning "Afrosiyobning qadimiy afsonasi" kabi spektakllar tomoshabinlar e'tiboriga taqdim etilib, olqishlarga sazovor bo'lib kelmoqda.

Jahon raqs san'ati tarixida pantomimo san'atining o'rni nihoyatda salmoqlidir. Pantomimo so'zi yunoncha faqat tana harakati bilan o'ynovchi aktyor, taqlid degan ma'noni bildiradigan sahna san'at turi.

Pantomimo fransuz tilidan olingan bo'lib bu san'at rivojiga mim aktyori Marso Marsel katta hissa qo'shgan.

1940-yil Sara Bernar teatri qoshidagi dramatik studiya aktyorlik mahoratidan ta'lim olgan, keyinroq Sh. Duillin va E Dekru kabi sahna ustalaridan pantomimo sirlarini o'rgangan.

1947-yili Parijda “Mimlar hamdo’stligi” truppasini tashkil qilib, 1960-yilgacha unga rahbarlik qilgan.

O’rta asrdagi “Komediya del arte” teatri qahramoni Pyyero va Charli Chaplin ta’sirida yaratilgan. Charli Chaplinning asosiy ishlari “Men uchun hayotda eng muhimi insonni tasvirlash”. Haqiqat! Haqiqat! Haqiqat! Menga boshqa narsaning ahamiyati yo’q.

XX-asrda dunyoning eng mashhur va buyuk kishilaridan biriga aylangan Charli Chaplinning shiori edi.

Charli Chaplin 1889-yil 16 aprelda Londonda tavallud topgan. Unga “Tillinning qisqa muhabbati” (1914), “Parijlik ayol” (1923), “Oltin vasvasasi” (1925), “Sirk”(1928), “Katta shahar chiroqlari” (1931), “Yangi davrlar”(1936), “Buyuk diktator” (1940), singari ko’plab filmlari katta shuxrat keltiradi. Charli Chaplinni butun dunyoda tanimaydigan kishi bo’lmasa kerak.

Buyuk san’atkor ijodining tadqiqotchilaridan biri shunday degan edi. “Dunyoning hamma mamlakatlarida ko’chada uchratib qolsa hamma taniydigan, hamma birdek minnatdorlik tuyg’usi bilan xotirlab yuradigan bitta inson bor. Bu-Charli Chaplindir!...” Bu fikrga barcha san’atsevarlar qo’shilsa kerak....

[Matluba Temur qizi tayyorladi. “Jahon adabiyoti”, 2013-yil. 4- son.]

Har bir xalqning raqs an’analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo’lib ular tarixiy ijtimoiy va goeografik sharoitlar ta’sirida tarkib topib rivojlangan. Raqs xalq marosimlari, bayramlarning tarkibiy qismidir. Ular bilan bog’liq holda xorovod va raqs marosim o’yinlari paydo bo’lgan. Xalq raqsida ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bog’liq mavzular, shuningdek, xalqning bosqinchilarga qarshi kurash va lirik kayfiyati o’z aksini topgan.

IV-VII asrlarga kelib O’zbekistonning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlaridan raqs ustalari Buyuk ipak yo’llari bo’ylab Rim, Misr, G’arb o’lkalarigacha, borib, o’z san’atlarini namoyish etadilar.

Raqs san’ati, ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar saltanatida ravnaq topgan. San’atning eng go’zal jozibador turlaridan hisoblangan raqs san’ati insonlarni go’zallikka, ezgulikka yo’llaydi. Raqs nafaqat harakatlar uyg’unligi, balki kayfiyatni ko’taruvchi, insonlarga estetik did baxsh etuvchi ajib bir sirli dunyodir.

Biz jahon raqs san’ati tarixini o’rganar ekanmiz, bu borada xalqlarning qadim madaniyati, turmush tarzini va insonlarning ijtimoiy hayotini o’rganishga harakat qildik. Ilmiy maqolalar yozish jarayonida biz ko’pgina tarixiy va badiiy asarlarni o’qib anchagina bilimlarga ega bo’ldik.

Jahon raqs san’ati, O’zbekisto raqs san’ati tarixini o’rganar ekanmiz, raqsning inson salomatligi hususida ham to’xtalib o’tishimiz kerak.

Rossiyda raqs harakat terapiyasi 1990-yillarda paydo bo'lgan va dastlab kattalar uchun shaxsiy o'sish guruhlari va bolalar uchun ijodiy rivojlanish turi sifatida rivojlangan. Raqs harakat terapiya nazariyasining boshlanishi va birinchi o'quv dasturlari faqat 1950-yillarning oxirida paydo bo'la boshladi, chunki birinchi raqs terapevtlarining aksariyati professional raqqoslar edi.

1966-yilda Amerika raqs psixoterapiyasi (ADTA) tashkil etildi va bu sana raqs harakat terapiya rivojlanishining mustaqil fan sifatida boshlanishi hisoblanadi.

Xozirgi vaqtda raqs harakat terapiyasi psixoterapiyaning mustaqil yo'nalishi sifatida ajratilgan.

Stressga qarshi dasturlar, homilador ayollar uchun dasturlar, jiddiy kasalliklarga chalingan bemorlar, parkinson kasalligi autizm, travmadan keyingi kasalliklar. Demak, raqs nafaqat san'at turi, balki, davolash usullaridan biri sifatida ham qo'llanilmoqda.

San'at dunyosiga oshno bo'lish, san'atni sevish va uni qadrlash insonlarga faqat va faqatgina yaxshiliklar ulashib va ko'ngillarga rohatbaxsh, huzurbaxsh tuyg'ularni baxsh etishiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madina Muhammedova. Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi T-2021. "Fan ziyosi" nashriyoti.
2. Internet tarmog'idagi ma'lumotlar.
3. Matluba Temur qizi. "Jahon adabiyoti" 2013-yil 4-son.